

O`RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII-XIX ASR BIRINCHI YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAGIYASI VA KARTOGRAFIK TAQDIQOTLARI

¹Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li,

²Quvondiqov Sardor To'xtasin o'g'li,

³Xolmo'minov Behruz Rahmatillo o'gli

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7466233>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligi, Xiva va Qo`qon xonliglarining 1700-1800 yillardagi o`zoro kurashlar natijasida egallangan hududlar tarixiy geografiyasi hamda ushbu hududlarning strategik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan muhim mintaqa ekanligi va bu hududlarning kortografik taraqqiyotlari keng yoritilgan.

Kalit so'z. O`rta Osiyo, Buxoro amirligi, Qo`qon xonligi, Xiva xonligi, Vatan, poytaxti, voha, beklik, o`zbek.

Buxoro taxtiga Mang`it urug`dan bo`lgan Muhammad Raxim otaliq o`tirgandan keyin ham 1753 feodal tarqoqik tugamadi. Xiva xoni o`zini mustaqil deb e`lon qildi. XVIII asr boshlarida o`zbeklarning ming urug`i vakillari Qo`qon xonligini tashkil etdilar. Shahrisabz, Hisor, Badaxshon xokimlari Buxoro amiriga bo`ysinmay qo`ydilar. Faqat amir Shohmurod davrida 1785-1800 hokimyat bir muncha mustahkamlandi. Amir Nasrullo davrida 1826-1860 amirlik hududiga Amudaryo bo`ylari, janubiy-sharqida Surxondaryogacha bo`lgan yerlar, Marv va Balx kirar edi. 1842-yilda Qo`qon xonligi ham qisqa muddatda zabt etiladi. 1512 yili Xiva xonligiga o`zbeklar xoni Elbarsxon tomonidan asos solingan edi. Xonlig poytaxti dastlab Vazir, keyinchalik Urganch va viva bo`lgn. Buxoro amirligi tomonidan bir necha bor bosib olingan Xiva Xonligi XVIII asr o`rtalarida yana mustaqillikni qo`lga kiritdi. 1763-yilgi taxt uchun davom etgan kurashlardan so`ng o`zbek urug`laridan bo`lgan qo`ng`irot inoqlari taxtni egalladilar. Muhammad Rahimxon I davrida 1806-1825 Xiva xonligi to`la birlashtirildi, qo`shni mayda bekliklar, orolbo`yi qabilalari qo`shib olindi. Qo`qon xonligiga Ming urug`idan chiqqan Shohruxbiy 1710 yilda asos slogan bo`lib, Norbo`tabiy davrida 1769-1800 Chust, Namangan, Xo`jand bekliklari bo`ysindirilgan. Olimxon davrida 1800-1809 Toshkent, Chimkent, Sayram bekliklari bosib olindi. Muhammad Alixon 1822-1842 yillarda, 1826-yili Xitoylarga qarshi qo`zg`olon ko`tarilgan Sharqiy Turkiston aholisiga yordam berib Oqsuv, Koshg`ar, Yorkent va Xo`tan viloyatlarini qo`lga kritdi. 1842-yili Qo`qonga bostirib kelgan Buxoro amiri Nasrullo Muhammad Alixon va uning qarindoshlarini qatl ettirdi. Shunday keyin Qo`qon xonligida taxt uchun kurash

boshlandi.1845-yilda taxtga o'tirgan Xudoyorxon ruslar bostirib kelgandan keyin,ular bilan bitim tuzib ,Rossiya vassaliga aylandi.Bunga qarshi Farg'ona vodiysi aholisi qo'zg'olon ko'tardi.1876-yili Rossiya imperiyasi harbiylari qo'zg'olonni bostirdilar va bahonada Qo'qon xonligi tugatilib ,Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shib yuborildi[1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroi sharif edi.Yirik shaharlardan Samarqand,Qarshi,Shahrisabz,Kitob,G'uzor,Termiz,Sherobod,Hisor,Dushanbe,va Ko'lob ka'bi shaharlar amirlik tasarrufida edi.Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasida,Jizzax,O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lar ,bu shaharlar qo'ldan qo'lga o'tib turar edi.Buxoro amirligi 27 ta beklilik;Karmana,Xatirchi,Ziyoviddin,Nurota,Qarshi,Kitob,Shahrisabz,Chiroqchi,va Yakkabog`shuningdek[2].G'uzor,Boysun,Sherobod,Denov,Karki,Chorjo'y,Hisor,Ko'lob,Qorategin Darboz,Baljuvon,Sho'g'non-Ro'shon,Qo'rg'ontepa,Qabodiyon Kalif,Bo'rdalik,Qoboqli va Xorazm bekliliklaridan iborat edi.Bekliklar mahalliy qabila boshliqlari ,katta mulk egalari tomonidan boshqarilgan.Har bir beklilikni amir tomonidan tayinlab qo'yilgan hokimlar beklar idora qilgan.Hokim huzurida yuzlab mahalliy ma'murlar xizmat qilgan.Manbalar,amirlikda mahalliy ma'murlar shtati 30 ming kishini tshkil etganligidan guvohlik beradi.Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi,ular mahalliy aholidan olinadigan turli-tuman soliq va to'lovlar hisobiga tirikchilik qilishganlar[3].

Xiva xonligi janubda Eron,sharqda Buxoro amirligi,g'arbda Kasbiy dengizi,shimolda Qozoq juzlari bilan chegaradosh edi.Suvsiz va poyonsiz Qoraqum,Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi.Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva,Urganch,,Kat,Ko'hna Urganch,Xazorasp,Qo'ng'irot,Xo'jayli,Kurdar[hozirgi Chimboy]shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi.O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri 1598-yildan boshlab xonlikning poytaxti bo'lgan.Shahar ikki qism -Ichan qal'a[shaharning ichki qismi]va Dishon qal'a [shaharning tashqi qismi]dan iborat edi.Ichan qal'ada xon qarorgohi va harami,17 ta masjid,22 ta madrasa,karvonsaroy va bozor joylashgan.1842-yilda Dishan qal'a hunarmandlar,savdogarlar,mardikorlar,qisman dehqonlar istiqomat qilganlar.

Ma'muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp,Gurlan,Xonqa,Ko'hna -Urganch,Qo'shko'prik,Pitnak,G'azovod,Kat,Shohabbos,Shovot,Toshhovuz,Ambor-manoq,Urganch,Xo'jayli,Shumanay,Qo'ng'irot kabi beklilik va viloyatlarga

bo'lingan. Xonlik tarkibida Beshariq va Qiyotqo'ng'iro't noibliklari ham bo'lgan. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar huzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p mansabdorlar bo'lgan [4].

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan o'rta osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari yastanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Qo'qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy edi. Xonlikning markaziy shaharlari Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan, Farg'ona vodiysida joylashgan edi. Toshkent, Chikment, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi.

Qo'qon xonligi 15 beklik, ya'ni harbiy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqoro boshqaruvining boshlig'i edi. Ular o'z tasarrufidagi qo'shinni o'zlari moddiy jihatdan ta'minlanganlar. Hokimlar harbiy yurushlar oldidan xonning birinchi dav'ati bilan o'z qo'shinlari bilan belgilangan joyga yetib kelishlari shart edi. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ulganda oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingtagacha sipohni yig'a olardi [5].

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 million atrofida aholi istiqomat qilar edi. Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, sharqiy Buxoroda 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari – Buxoro 60 ming, Samarqand 50 mingga yaqin kishi istiqomat qilardi. Aholi etnik jihatdan ko'pgina qavm-urug'lardan iborat bo'lib, ularning qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'iro't, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular asosan, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalariagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilar edila [6].

Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, unda taxminan 3 millioncha kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkentda 60 ming aholi yashagan. Qo'qon xonligi aholisi ko'pchilik qismi

o`zbeklar, shuningdek tojiklar, qirg`izlar, qozoqlar, uyg`urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham istiqomat qilganlar [7]. Xiva xonligida aholining ko`pchilik qismini o`zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko`p sonlilar qo`ng`irot, nayman, qiyot, uyg`ur, nukuz, qangli, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O`zbek qabilalari, asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismida, kanal bo`ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini [taxminan to`rt dan birini] turkmanlar tashkil etgan. Turkmanlar qadimgi o`gizlarning avlodlari bo`lib, forscha so`zlashuvchi mahalliy xalqlar va o`zbeklar bilan qorishib ketgan edi [8]

XULOSA. Buxoro amirligi, Xiva va Qo`qon xonliglarining siyosiy-mamuriy, ma`muriy-hududiy shakllanishi va bo`linishi natijasida, O`rta osiyo tarixiy geografiyasi va kortografiyasi o`zgacha miqyosda shakllandi. Uch davlatga bo`linib yashagan o`zbek xonliklari o`rtasida munosabatlar yaxshi bo`lmasada, lekin fan, san`at, madaniyat yaxshi rivojlangan. Xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O`rta osiyo jahon bozoridan ajralib qolgan, bu yerda yagona ichki bozor ham tshkil topmagan edi. Natijada XIX asr oxiriga kelib ular Rossiya imperiyasi tarkibiga yarimmustamlaka [kiyinroq to`liq mustamlaka] sifatida qo`shib olindi va tarixiy geografiya va kortografiyasi o`ziga xos shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov O. XVI – XX asrlarda O`rta Osiyoning Rossiya bilan tarixiy va iqtisodiy aloqalari.- T., 1958.
2. Ziyayev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash [XVIII – XX asr boshlari].- T.; Sharq, 1998.
3. Yo`ldoshyev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi.- T., 1959.
4. Корженевский Н.Л. К истории развития картографии и географических представлениях о территории Средней Азии и Узбекистана в XVIII Веке// изд. АН СССР. 1949, Нумер 1.
5. Лунин Б.В. история Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и учёных XVI-первой половины XIX в.- T.; Фан, 1988.
6. Маслова О.В. Обзор русских путешествий и экспедиций в Среднюю Азию. В 3-х частях.- T.; Фан, 1971. Тт. I – III.
7. Muhammadjonov A.R., Ne`matov T.N. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba`zi manbalar. – T., 1957.
8. O`zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.; Sharq, 2001.
9. O`zbekistonning yangi tarixi. 1 – jild. – T. ; Sharq, 2000.

10.Южин Скайлер. Туркистон; Rossiya Turkistoni, Qo`qon, Buxoro va G`uljaga sayohat qaydlari // Kirish, ingliz tilidan qisqartirilgan tarjima, izohlar va ko`rsatkichlar muallifi Z. A. Saidboboyev. – T.;" O`zbekiston " NMIU , 2019.